



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL
IYUN/6-SON, II-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>





IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqov, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

METAVERS TURIZMI: VIRTUAL DUNYODAGI SAYOHATNING IQTISODIY, HUQUQIY VA IJTIMOIIY NATIJALARI	12
Urazov Jamshidjon Sa'dullayevich	
Eshimova Sevinch Baxtiyor qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SUN'IY INTELLEKT VA PLATFORMA EKOTIZIMLARINING KORXONA INNOVATSIYALARIDAGI O'RNI	16
Izzatullayeva Madinabonu Yolqin qizi	
METHODOLOGY FOR ASSESSING THE ECONOMIC DAMAGE OF ECOLOGICAL HAZARDS IN URBAN AREAS: CONCEPTUAL SHORTCOMINGS OF NON-MARKET VALUATION METHODS AND THE INTEGRAL DAMAGE FUNCTION APPROACH	20
Abbos Saydullaev	
Iqboloy Choriyorova	
O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA RAQAMLI IQTISODIYOT IMKONIYATLARI	31
Ibragimova Rayxon Tojibayevna	
OZIQ-OVQAT SANOATIDA "ZAYLANMA IQTISODIYOT (CIRCULAR ECONOMY)" MODELINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	36
Elnoraxon Muminova Abdukurimovna	
Sarvinov Mamatojiyeva Dilshodjon qizi	
TRANSPORT KORIDORLARINI BOSHQARISHDA LOGISTIKA MENEJMENTINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	42
Umarova Dilfuza Rahmatulla qizi	
ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ И ПЕРСПЕКТИВ ЦИФРОВИЗАЦИИ МИСЕ-СЕКТОРА В УЗБЕКИСТАНЕ	47
Narzulloeva Fariza Akmalевна	
ECONOMETRIC MODELING OF THE DYNAMICS OF RETAIL TRADE TURNOVER UNDER THE INFLUENCE OF REAL HOUSEHOLD INCOME USING A LOGARITHMIC FUNCTION	53
Gaybullayev Sarvar Uktam ugli	
MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING MAZMUN-MOHİYATI VA NAZARIY ASOSLARI	59
Mizamova Umida Jamoliddin qizi	
SPORT TAKOMILLASHUVI BOSQICHIDAGI FUTBOLCHILARNING MUSOBAQA FAOLIYATIDA INNOVATSION VOSITALARNING O'RNI	64
Mamatraimov Anvar Chorshanbiyavich	
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA CHET TILINI VIZUAL MATERIALLAR VOSITASIDA O'RGATISHNI TAKOMILLASHTIRISH	72
Olimova Shahlo Bahodir qizi	
Inomova Mahliyo Yusuf qizi	
INCREASING THE ATTRACTIVENESS OF DIVIDEND POLICY IN UZBEKISTAN COMPANIES	76
Akmal Komiljonovich Shermukhamedov	
XUSUSIYLASHTIRISH JARAYONLARINING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	81
Musurmonqulov Muhammad Ural o'g'li	
TEMIR YO'L ISHLAB CHIQRISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIIY MEXANIZMI	86
Baymatov Atxam Axmadaliyevich	



MENEJMENT NAZARIYASINING SHAKLLANISHI VA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI.....	92
Saidova Xilolaxon Rashidjon qizi OPPORTUNITIES FOR USING MARKETING STRATEGIES TO ENSURE THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF HOTEL ENTERPRISES IN UZBEKISTAN	97
Sardor Kuvandikov ЭФФЕКТИВНОСТЬ СОЦИАЛЬНЫХ ПРОГРАММ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ	106
Абдуллаева Зульфия Иззатовна NAMANGAN VILOYATINING HUDUDIYIQTISODIY TUZILMASI VA SHAHARLAR TIZIMINING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI.....	113
Ahmadjanov Ilyosbek Ilhomjon o'g'li JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARINI SOLIQA TORTISH MEKANIZMI VA XALQARO TAJRIBALAR QIYOSIY TAHLILI	117
G'afforov Kamronbek “O‘ZBEKISTON TEMIR YO‘LLARI” AJNING SINGULYAR VA BARQARORLIK KO‘RSATKICHLARI TAHLILI	123
Bobojonova Zarnigor Shokirovna MINTAQAVIY IQTISODIY JARAYONLARNI BAHOLASHDA DSGE MODELINING QASHQADARYO SHAROITIGA MOSLASHTIRILGAN TAHLILIIY KOMPONENTLARI.....	132
Muxitdinov Xudayar Suyunovich Quvatova Gulzoda Faxriddin qizi O‘ZBEKISTONDA TIBBIY TURIZM VA TIBBIY XIZMATLAR TIZIMINING MAZMUNI	137
Ergasheva Iroda Ibrohim qizi FOYDA SOLIG‘INING BANKLAR MOLIYAVIY HOLATIGA TA‘SIRINI BAHOLASH	141
Maxmudov Omon To‘xtayevich RAQAMLI INFRATUZILMA TUSHUNCHASI, TARKIBI VA IQTISODIY MAZMUNI.....	147
Pardayev Orifjon Charshamiyevich O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	152
Omonova Zarina Xudoymurodovna RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOBINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI (Shartli “suv ta‘minot servis” AJ misolida).....	160
Doniyorova M. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK KORXONALARI RIVOJLANISHINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH.....	164
Komilova Shaxnoza Komiljon qizi SUN‘IY INTELLEKT ASOSIDA INSON RESURLARINI BOSHQARISHDA XODIMNING QIYMAT YARATISH DARAJASINI BAHOLASHNING INTEGRALLASHGAN MODELII (EVCI)	169
Xaydarova Malika Shokirjon qizi ГОСУДАРСТВЕННАЯ ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ ПОЛИТИКА УЗБЕКИСТАНА И МЕХАНИЗМ ЕЁ РЕАЛИЗАЦИИ	174
Нодира Илхамовна Саидахмедова Жамолiddин Ярашевич Нуриллаев THE RELATIONSHIP BETWEEN FRUGALITY AND INNOVATION: A THEORETICAL AND METHODOLOGICAL PERSPECTIVES.....	181
Allaberganov Zakir Gaibovich Alimova Guzal Abdukhakimovna BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA TARMOQLARARO INTEGRATSIYANING INSTITUTSIONAL MODELII.....	188
Muftaydinov Mansur Kiyomidinovich	



AHOLINI IJTIMOIY HIMOYALASH TIZIMINI BOSHQARISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	196
Xamroyev Anvar Ashurovich	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI QAYTI ISHLAYDIGAN BIZNES SUBYEKTLARIDA MEHNAT UNUMDORLIGINI OSHIRISH	202
Ismaylov Kuvatbay Sarsenbayevich	
IQTISODIYOT TARMOQLARINI QO'LLAB-QUVVATLASHDA FISKAL INSTRUMENTLARNING NAZARIY-IQTISODIY ASOSLARI	206
Mardonov Kamoliddin Karamiddinovich	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI VA ULARNI BOSHQARISH	212
Hamroyeva Feruza Azizjon qizi	
BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA TARMOQLARARO INTEGRATSIYANING INSTITUTSIONAL MODELINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	217
Muftaydinov Mansur Kiyomidinovich	



BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA TARMOQLARARO INTEGRATSIYANING INSTITUTIONAL MODELINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

Muftaydinov Mansur Kiyomidinovich

“International School of Finance Technology and Science” instituti,
“Biznes boshqaruvi” kafedrası, iqtisodiyot fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), v.b. dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) kontekstida tarmoqlararo integratsiyaning institutsional modelini shakllantirish masalalari ilmiy jihatdan tadqiq etilgan. Tadqiqotda iqtisodiy tizimlar o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlik va o'zaro uyg'unlik jarayonlari, jumladan sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish hamda intellektual iqtisodiyot segmentlari integratsiyasi institutsional iqtisodiyot, klaster nazariyasi va davlat-xususiy sheriklik metodologiyasi asosida tahlil qilingan. Maqolada O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanish tendensiyalari, tarmoqlararo integratsiyani kengaytirish imkoniyatlari, raqamli transformatsiya hamda yashil iqtisodiyot omillarining integratsion jarayonlarni jadallashtirishdagi o'rni yoritilgan. Mualliflar tomonidan O'zbekiston sharoitlariga moslashtirilgan institutsional integratsiya modeli taklif etilgan hamda uning tarkibiy elementlari SWOT-tahlil asosida baholangan. Tadqiqot natijalari iqtisodiy siyosatni takomillashtirish, tarmoqlararo hamkorlik samaradorligini oshirish va innovatsion rivojlanishni qo'llab-quvvatlash nuqtayi nazaridan muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: barqaror rivojlanish, tarmoqlararo integratsiya, institutsional model, klaster tizimi, davlat-xususiy sheriklik, yashil iqtisodiyot, raqamli transformatsiya, innovatsion boshqaruv, iqtisodiy siyosat, hududiy rivojlanish, kooperatsiya mexanizmi, O'zbekiston iqtisodiyoti.

Аннотация. В данной статье исследуются вопросы формирования институциональной модели межотраслевой интеграции в контексте целей устойчивого развития (ЦУР). В исследовании рассматриваются многогранные взаимосвязи между экономическими системами, включая интеграцию промышленности, сельского хозяйства, сферы услуг и интеллектуального сектора экономики, на основе методологии институциональной экономики, кластерной теории и государственно-частного партнёрства. В статье раскрываются современные тенденции развития экономики Узбекистана, перспективы расширения межотраслевого взаимодействия, а также роль цифровой трансформации и зелёной экономики в активизации интеграционных процессов. Авторами предложена институциональная модель интеграции, адаптированная к условиям Узбекистана, а её структурные элементы оценены с использованием SWOT-анализа. Результаты исследования обладают практической значимостью для совершенствования экономической политики, повышения эффективности межотраслевого сотрудничества и стимулирования инновационного развития.

Ключевые слова: устойчивое развитие, межотраслевая интеграция, институциональная модель, кластерная система, государственно-частное партнёрство, зелёная экономика, цифровая трансформация, инновационное управление, экономическая политика, региональное развитие, механизм кооперации, экономика Узбекистана.

Abstract. This study examines the formation of an institutional model of inter-sectoral integration in the context of the Sustainable Development Goals (SDGs). The research explores multidimensional interactions among economic systems, including the integration of industrial, agricultural, service, and intellectual economy sectors, based on the methodologies of institutional economics, cluster theory, and public-private partnership. The article highlights current development trends in Uzbekistan's economy, the prospects for strengthening inter-sectoral cooperation, and the role of digital transformation and green economy initiatives in accelerating integration processes. The authors propose an institutional integration model adapted to the conditions of Uzbekistan, and its structural elements are evaluated using SWOT analysis. The findings provide valuable practical insights for enhancing economic policy, improving inter-sectoral cooperation, and promoting innovative and sustainable development.

Keywords: sustainable development, inter-sectoral integration, institutional model, cluster system, public-private partnership, green economy, digital transformation, innovative management, economic policy, regional development, cooperation mechanism, Uzbekistan's economy.



KIRISH

XXI asrda iqtisodiy munosabatlarning murakkablashuvi, resurslardan samarali foydalanish zarurati hamda ekologik barqarorlik talablarining ortib borishi milliy iqtisodiyotlar oldida yangi rivojlanish imkoniyatlarini shakllantirmoqda. Jahon iqtisodiy forumi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilga kelib global yalpi ichki mahsulotning 60 foizdan ortig'i turli tarmoqlar o'rtasidagi sinergik hamkorlik va integratsion jarayonlar hisobiga shakllanmoqda [1]. Shu nuqtayi nazardan, tarmoqlararo integratsiyaning institutsional asoslarini takomillashtirish hamda ularni barqaror rivojlanish talablariga moslashtirilgan zamonaviy boshqaruv modellari asosida rivojlantirish muhim strategik ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida 2017-yildan boshlab amalga oshirilayotgan strukturaviy islohotlar natijasida iqtisodiyotni liberallashtirish, investitsiyalarni jalb qilish va sanoatni rivojlantirish borasida salmoqli natijalarga erishildi. Prezident Sh.M. Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan "Yangi O'zbekiston" strategiyasi doirasida 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida barqaror rivojlanish va tarmoqlararo integratsiya ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan [2]. Mazkur yo'nalishlarda erishilgan natijalar iqtisodiy tizimning mavjud salohiyatidan yanada samarali foydalanish, tarmoqlar o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlarini mustahkamlash, institutsional imkoniyatlarni kengaytirish hamda innovatsion ekotizimni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratmoqda.

Muammoning ilmiy-nazariy jihatlariga e'tibor qaratilganda, tarmoqlararo integratsiyaning institutsional modelini barqaror rivojlanish nuqtai nazaridan o'rganish istiqbolli ilmiy yo'nalishlardan biri ekanligi namoyon bo'ladi. Mavjud ilmiy tadqiqotlar iqtisodiy samaradorlik va ekologik barqarorlikning turli jihatlarini yoritib bergan bo'lsa-da, ularni yagona tizim doirasida uyg'unlashtirish imkoniyatlari yanada chuqurroq tadqiq etishni talab qiladi. Mazkur maqolada iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy farovonlik va ekologik barqarorlik kabi uchta asosiy o'lcham yagona institutsional tizim doirasida integratsiyalashgan holda ko'rib chiqilib, kompleks integratsion konsepsiya taklif etiladi.

Tadqiqotning maqsadi barqaror rivojlanish sharoitida O'zbekiston iqtisodiyoti uchun tarmoqlararo integratsiyaning samarali institutsional modelini nazariy jihatdan asoslash, uning amaliy mexanizmlarini tahlil qilish hamda istiqbolli tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Institutsional iqtisodiyot va integratsion nazariyalarni qiyosiy tahlil qilish;
2. O'zbekistonda tarmoqlararo integratsiyaning hozirgi holati va rivojlanish istiqbollarini baholash;
3. Mualliflik institutsional modelini ishlab chiqish va uni SWOT-tahlil asosida baholash;
4. Amaliy tavsiyalar hamda iqtisodiy siyosatni yanada takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda ilk bor O'zbekiston iqtisodiy kontekstida barqaror rivojlanish konsepsiyasi, klaster nazariyasi va institutsional iqtisodiyot yondashuvlarini sintez qiluvchi ko'p o'lchamli integratsion model taklif etilgan. Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekiston iqtisodiyotidagi tarmoqlararo integratsion jarayonlar tanlangan bo'lsa, tadqiqot predmeti ushbu jarayonlarni tartibga soluvchi institutsional munosabatlar va boshqaruv mexanizmlaridan iborat. Mazkur tadqiqot natijalari tarmoqlararo hamkorlik samaradorligini oshirish, innovatsion rivojlanishni jadallashtirish hamda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tarmoqlararo integratsiya masalasi iqtisodiy nazariyada bir necha o'n yilliklar davomida tadqiq etib kelinayotgan bo'lsa-da, uning institutsional jihatdan tahlili zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarning istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Institutsional iqtisodiyot asoschilaridan biri bo'lgan D. Nortning ilmiy qarashlariga ko'ra, iqtisodiy rivojlanishning sur'ati va sifati ko'p jihatdan rasmiy hamda norasmiy institutlarning uyg'un faoliyatiga bog'liqdir [3]. Olim "institutlar – bu o'yin qoidalari" degan konsepsiyani ilgari surib, iqtisodiy agentlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi normalar, an'analar va huquqiy mexanizmlarning muhimligini ta'kidlaydi. Mazkur nazariy yondashuv tarmoqlararo integratsiyani institutsional hamkorlik va samarali boshqaruv mexanizmlari doirasida o'rganish uchun mustahkam nazariy asos yaratadi.

M. Porterning klaster nazariyasi tarmoqlararo integratsiyaning iqtisodiy asoslarini tushuntirishda muhim metodologik vosita hisoblanadi [4]. Porter o'zining "Millatlarning raqobatdosh afzalliklari" asarida klasterlarning hududiy raqobatbardoshlikni oshirishdagi rolini empirik tadqiqotlar orqali asoslab bergan. Uning Diamond modeli konsepsiyasi – omillar sharoiti, talab sharoiti, tegishli va yordamchi tarmoqlar, firma strategiyasi hamda raqobat muhiti – O'zbekiston sharoitida tarmoqlararo integratsion klasterlarni shakllantirish va ularning samaradorligini oshirishda muhim amaliy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi nuqtai nazaridan, Brundtland komissiyasining 1987-yilda e'lon qilingan "Bizning umumiy kelajagimiz" ("Our Common Future") hisobotida barqaror rivojlanishning ilk rasmiy ta'rifi berilgan



bo'lib, unda kelajak avlodlarning manfaatlarini hisobga olgan holda bugungi ehtiyojlarni qondirish g'oyasi ilgari surilgan [5]. Mazkur yondashuv tarmoqlararo integratsiya uchun uzoq muddatli strategik rivojlanish mezon sifatida muhim ahamiyatga ega. Keyingi yillarda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan 17 ta Barqaror rivojlanish maqsadi (BRM–2030) ushbu konsepsiyaning amaliy ahamiyatini yanada kuchaytirdi [6].

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan R. Xasanov va N. Tursunov milliy klaster siyosatini institutsional jihatdan tahlil qilib, mamlakatda klaster tizimini yanada rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar va institutsional salohiyat mavjudligini qayd etganlar [7]. Shuningdek, Sh. Haydarov va B. Toshmatov O'zbekistonda sanoat integratsiyasini rivojlantirishning me'yoriy-huquqiy asoslarini tadqiq qilib, qonunchilik bazasini yanada takomillashtirish integratsion jarayonlar samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ta'kidlaganlar [8]. A. Abdullayevaning innovatsion iqtisodiyotga oid ilmiy izlanishlarida esa O'zbekiston uchun "bilim klasterlari" konsepsiyasi ilgari surilgan bo'lib, ushbu yondashuv innovatsiyalarni rag'batlantirish va bilimlar iqtisodiyotini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida baholanadi [9].

Xorijiy tadqiqotchilar orasida Nobel mukofoti sovrindori J. Tirole tarmoq iqtisodiyoti va raqobat munosabatlariga bag'ishlangan ilmiy ishlarida integratsiyaning iqtisodiy samaradorlik va raqobat muhitini shakllantirishdagi muhim rolini tahlil qiladi [10]. Uning tadqiqotlari integratsion jarayonlarning turli iqtisodiy sharoitlardagi natijalarini chuqurroq tushunish imkonini beradi. R. Coase esa tranzaksion xarajatlar nazariyasi asosida integratsiya qarorlarini izohlaydi. Uning fikriga ko'ra, firmalar bozor mexanizmi orqali amalga oshiriladigan faoliyatni o'z ichki tizimiga integratsiya qilganda va buning natijasida umumiy tranzaksion xarajatlar optimallashtirilganda integratsiya jarayonlari yanada samarali amalga oshiriladi [11]. Mazkur nazariy yondashuvni tarmoqlararo integratsiya jarayonlariga, ayniqsa O'zbekiston sharoitiga moslashtirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillardagi tadqiqotlarda, ayniqsa COVID-19 pandemiyasidan keyingi davrda, tarmoqlararo integratsiyaning ta'minot zanjiri barqarorligi (supply chain resilience) va raqamli ekotizimlar bilan uyg'unlashuviga alohida e'tibor qaratilmoqda. P. Linton va M. Klausening 2022-yilda olib borgan tadqiqotlariga ko'ra, raqamli texnologiyalar tarmoqlararo integratsiya xarajatlarini o'rtacha 34 foizga kamaytirishi empirik jihatdan asoslab berilgan [12]. Bu holat integratsion modellarni raqamli transformatsiya sharoitida yanada takomillashtirish va modernizatsiya qilishning muhimligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tarmoqlararo integratsiyaning institutsional modeli bo'yicha keng nazariy va metodologik asoslar shakllangan. Shu bilan birga, O'zbekiston iqtisodiyoti sharoitida barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uyg'unlashtirilgan yaxlit institutsional modelni yanada rivojlantirish va boyitish imkoniyatlari mavjud. Mazkur ilmiy yo'nalishni chuqurlashtirish hamda amaliy mexanizmlar bilan boyitish ushbu maqolaning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot tizimli va institutsional yondashuvlar asosida amalga oshirildi. Tizimli yondashuv tarmoqlararo integratsiyani o'zaro bog'liq elementlardan tashkil topgan murakkab va dinamik iqtisodiy tizim sifatida tahlil qilish imkonini berdi. Shu asosda iqtisodiy tarmoqlar o'rtasidagi hamkorlik, sinergiya va o'zaro ta'sir mexanizmlarining samaradorligi baholandi [13].

Tadqiqotda iqtisodiy-statistik tahlil usullaridan foydalanilib, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2019–2023-yillarga oid ma'lumotlari, Jahon banki va OECD hisobotlari o'rganildi hamda tahlil qilindi. Regressiya, korrelyatsiya va qiyosiy tahlil usullari qo'llanilib, tarmoqlararo integratsiyaning rivojlanish tendensiyalari va iqtisodiy natijalari baholandi.

Komparativ tahlil asosida Janubiy Koreya, Germaniya, Singapur va Qozog'istonning tarmoqlararo integratsiya tajribasi O'zbekiston sharoiti bilan taqqoslandi. Institutsional yondashuv esa rasmiy va norasmiy institutlarning integratsion jarayonlarga ta'sirini aniqlash hamda ularning samaradorligini baholash imkonini berdi [14].

Shuningdek, induksiya va deduksiya usullari yordamida empirik natijalar umumlashtirildi, SWOT-tahlil orqali esa taklif etilgan institutsional modelning kuchli jihatlari, rivojlanish imkoniyatlari va istiqbollari baholandi. Mazkur metodologik yondashuvlar tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi va amaliy ahamiyatini yanada oshirishga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

5.1. Tarmoqlararo integratsiyaning iqtisodiy mohiyati va nazariy asoslari

Tarmoqlararo integratsiya iqtisodiy kategoriya sifatida turli tarmoqlar va iqtisodiy sektorlar o'rtasida ishlab chiqarish, texnologik, moliyaviy hamda axborot resurslarini uyg'unlashtirish orqali qo'shimcha qiymat yaratish



jarayonini anglatadi [15]. Mazkur jarayonning asosiy maqsadi iqtisodiy samaradorlikni oshirish, resurslardan yanada oqilona foydalanish va sinergik natijalarga erishishdan iborat. Bunda birgalikdagi faoliyat natijasi alohida faoliyat yuritish natijalariga nisbatan yuqoriroq samaradorlik va barqaror rivojlanish imkoniyatlarini yaratadi.

Iqtisodiy nazariyada tarmoqlararo integratsiyaning gorizontal, vertikal va diagonal shakllari ajratiladi. Gorizontal integratsiya bir xil faoliyat yo'nalishidagi tarmoqlar o'rtasidagi hamkorlikni, vertikal integratsiya esa ishlab chiqarish zanjiri bosqichlari o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi. Diagonal integratsiya turli tarmoqlar va bozorlar o'rtasidagi kooperatsiyani qamrab olib, barqaror rivojlanish nuqtai nazaridan yuqori samaradorlikka ega bo'lgan shakllardan biri hisoblanadi [16].

O'zbekiston iqtisodiyotida tarmoqlararo integratsiya jarayonlari izchil rivojlanib bormoqda. 2022-yil ma'lumotlariga ko'ra, yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoatning ulushi 33,2 foiz, xizmat ko'rsatish sohasi 46,7 foiz va qishloq xo'jaligi 20,1 foizni tashkil etgan [17]. Mazkur ko'rsatkichlar iqtisodiyotning diversifikatsiyalashgan tuzilmasini hamda tarmoqlar o'rtasidagi hamkorlikni yanada kengaytirish uchun mavjud salohiyatni aks ettiradi. Xususan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, logistika va xizmatlar sektori bilan integratsiyani kuchaytirish qo'shimcha qiymat yaratish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Natijada ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish va yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushini ko'paytirish uchun qulay sharoitlar shakllanadi. Shu bois O'zbekiston iqtisodiyotida tarmoqlararo integratsiyani yanada chuqurlashtirish, sanoat va xizmat ko'rsatish sohasini qishloq xo'jaligi bilan uzviy bog'lash hamda innovatsion va raqamli texnologiyalar asosida yangi qiymat zanjirlarini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi (1-jadval).

1-jadval
O'zbekiston iqtisodiyotining tarmoqlar bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2019–2023-yillar)¹

Ko'rsatkich	2019	2020	2021	2022	2023
YalM o'sishi, %	5,6	1,7	7,4	5,7	6,3
Sanoat ulushi, % (YalMda)	31,4	32,1	32,8	33,2	33,9
Xizmatlar ulushi, %	44,8	44,3	45,6	46,7	47,1
Qishloq xo'jaligi ulushi, %	23,8	23,6	21,6	20,1	19,0
Eksport hajmi, mlrd. AQSh \$	14,8	13,2	16,1	19,3	21,7
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, mlrd. AQSh \$	2,8	1,6	3,2	4,0	5,1
Ishsizlik darajasi, %	9,3	10,5	9,8	9,4	8,9

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, COVID-19 pandemiyasi davridagi global iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramay, O'zbekiston iqtisodiyoti barqaror o'sish dinamikasini saqlab qoldi. Qishloq xo'jaligi ulushining bosqichma-bosqich kamayishi esa iqtisodiyotning diversifikatsiyalashuvi va boshqa tarmoqlarning faol rivojlanayotganini aks ettiradi. Bu holat qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmatlar sektori o'rtasidagi qiymat zanjirlarini yanada chuqurlashtirish hamda yuqori qo'shilgan qiymat yaratish imkoniyatlarini kengaytirish uchun muhim zamin yaratadi.

5.2. Institutsional modelning tarkibiy elementlari va arxitekturasini

Maqolada taklif etilayotgan institutsional model o'zaro bog'liq bo'lgan to'rtta asosiy blokdan tashkil topgan. Birinchi blok – institutsional muhit bloki – qonunlar, soliq imtiyozlari, standartlashtirish va sertifikatlash tizimi kabi rasmiy institutlar, shuningdek biznes madaniyati, ishonch muhiti va sanoat uyushmalari kabi norasmiy institutlarni qamrab oladi. D. Nort ta'kidlaganidek, institutsional muhit iqtisodiy jarayonlarning "o'yin qoidalari"ni belgilaydi va integratsiya samaradorligi aynan ushbu qoidalarning barqarorligi hamda izchilligiga bog'liq [3].

Ikkinchi blok – koordinatsiya mexanizmlari bloki – tarmoqlararo hamkorlikni ta'minlovchi klaster kengashlari, sanoat assotsiatsiyalari, texnoparklar, innovatsion markazlar va davlat-xususiy sheriklik platformalarini o'z ichiga oladi. Ushbu mexanizmlar resurslarni yagona sinergik tizimga birlashtirish orqali iqtisodiy samaradorlik, innovatsion faollik va hamkorlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Uchinchi blok – resurs va qiymat zanjiri bloki – moliyaviy oqimlar, texnologiya transferi, kadrlar harakati va axborot almashinuvi jarayonlarini qamrab oladi. Mazkur bosqichda asosiy vazifa qiymat zanjiridagi rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash va ulardan samarali foydalanishdan iborat. O'zbekiston sharoitida moliyaviy intermediatsiya tizimini yanada takomillashtirish, investitsion resurslar oqimini kengaytirish va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini kuchaytirish integratsion jarayonlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [18].

¹ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan (2024).



To'rtinchi blok – monitoring va moslashuv bloki – tizimning barqaror faoliyatini ta'minlash, yuzaga kelayotgan vaziyatlarga tezkor javob qaytarish hamda iqtisodiy sharoitlarning o'zgarishiga moslashish mexanizmlarini o'z ichiga oladi. Ushbu blok institutsional modelning uzoq muddatli barqarorligi va samaradorligini ta'minlaydi.

5.3. Davlat, biznes va ilm-fan integratsiyasi: “Triple Helix” modeli va O'zbekiston tajribasi

Zamonaviy innovatsion iqtisodiyotda davlat, biznes va universitetlar o'rtasidagi hamkorlikka asoslangan “Triple Helix” modeli tarmoqlararo integratsiyaning samarali institutsional shakllaridan biri hisoblanadi [19]. Mazkur model H. Etzkowitz va L. Leydesdorff tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, innovatsiyalar aynan ushbu uch subyektning o'zaro hamkorligi natijasida shakllanishini asoslaydi.

O'zbekistonda ushbu modelning amaliy ko'rinishlaridan biri texnoparklar faoliyatida namoyon bo'lmoqda. Xususan, “Yangi O'zbekiston” texnoparki innovatsion kompaniyalar, universitetlar va biznes subyektlari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Texnopark faoliyatini mahalliy sanoat tarmoqlari bilan yanada mustahkam bog'lash esa uning innovatsion salohiyati va iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi [20].

Xalqaro tajriba, ayniqsa Germaniyaning Fraunhofer instituti tizimi, ilm-fan va sanoat integratsiyasining muvaffaqiyatli modelini namoyish etadi. Mazkur tizim tadqiqot muassasalari va biznes sektori o'rtasidagi uzviy hamkorlik asosida faoliyat yuritib, innovatsion ishlanmalarni amaliyotga joriy etishda muhim rol o'ynaydi [21]. O'zbekistonda ham ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmini kengaytirish, ilm-fan va biznes hamkorligini mustahkamlash hamda innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash orqali integratsion jarayonlarni yanada jadallashtirish uchun katta imkoniyatlar mavjud (2-jadval).

2-jadval
Davlat, biznes va ilm-fan integratsiyasining xalqaro qiyosiy tahlili²

Ko'rsatkich	O'zbekiston	Qozog'iston	Janubiy Koreya	Germaniya
R&D xarajatlari, % (YaIM)	0,12	0,14	4,81	3,13
Patent faolligi (1 mln aholiga)	3,2	8,7	2 637	586
Davlat-xususiy sheriklik loyihalari soni	47	183	1 240	3 800+
Texnopark va innovatsion markazlar soni	12	31	276	400+
Ilmiy maqolalar soni (yillik)	3 800	9 200	68 000	112 000
Raqamli iqtisodiyot ulushi, % (YaIM)	4,2	7,1	9,3	14,7

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda innovatsion integratsiya ko'rsatkichlarini yanada rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjud. Xalqaro tajriba innovatsion infratuzilma, ilm-fan va biznes hamkorligi hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish orqali yuqori natijalarga erishish mumkinligini tasdiqlaydi. Masalan, Janubiy Koreya 1980-yillarda rivojlanishning o'xshash bosqichlaridan birini bosib o'tgan bo'lib, maqsadli sanoat siyosati va integratsiyalashgan klasterlar orqali qisqa muddat ichida dunyoning innovatsion yetakchilaridan biriga aylangan [16]. Ushbu tajriba O'zbekiston uchun ham istiqbolli rivojlanish yo'nalishlarini namoyish etadi.

5.4. Klaster va kooperatsiya mexanizmlari: O'zbekiston tajribasi

M. Porter ta'rifiga ko'ra, klaster — bu geografik jihatdan yaqin joylashgan, o'zaro bog'liq kompaniyalar, yetkazib beruvchilar, xizmat ko'rsatuvchi subyektlar va ular bilan hamkorlik qiluvchi institutlar yig'indisidir [4]. O'zbekistonda 2023-yil holatiga ko'ra, 14 ta sanoat klasteri faoliyat yuritmoqda. Ularning orasida to'qimachilik, kimyo va oziq-ovqat sanoati klasterlari iqtisodiy rivojlanish va eksport salohiyatini oshirishda muhim o'rin tutmoqda.

Farg'ona vodiysi to'qimachilik klasteri mamlakatdagi eng muvaffaqiyatli integratsion loyihalardan biri sifatida e'tirof etiladi. Namangan, Andijon va Farg'ona viloyatlarini qamrab olgan ushbu klaster 340 dan ortiq korxonani birlashtirib, minglab yangi ish o'rinlarini yaratgan hamda eksport hajmini sezilarli darajada oshirgan

2 OECD Science, Technology and Innovation Outlook 2023 ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



[17]. Kelgusida ichki kooperatsiyani mustahkamlash va innovatsion faollikni kengaytirish ushbu klasterning samaradorligini yanada oshirish imkonini beradi.

Samarqand turizm klasteri esa xizmat ko'rsatish sohasi integratsiyasining muhim namunasi hisoblanadi. Turizm, hunarmandchilik, madaniy meros va ekologik turizm yo'nalishlari o'rtasidagi hamkorlik hudud iqtisodiyotining rivojlanishiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mazkur yo'nalishda institutsional koordinatsiyani yanada kuchaytirish va tarmoqlararo hamkorlikni kengaytirish qo'shimcha iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashi mumkin.

5.5. Raqamli transformatsiya va yashil iqtisodiyot omillarining integratsion jarayonlarga ta'siri

Raqamli transformatsiya tarmoqlararo integratsiyani jadallashtiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Bir tomondan, raqamli texnologiyalar axborot almashinuvi va biznes jarayonlarini tezlashtirib, integratsiya xarajatlarini kamaytiradi. Ikkinchi tomondan esa ular an'anaviy tarmoq chegaralarini qisqartirib, platforma iqtisodiyoti va yangi raqamli ekotizimlarning shakllanishiga xizmat qiladi [12]. O'zbekistonda internet foydalanuvchilari sonining ortishi, elektron tijorat va raqamli xizmatlarning kengayishi ushbu jarayonlarning izchil rivojlanayotganini ko'rsatadi [20].

Yashil iqtisodiyot omillari esa tarmoqlararo integratsiyaning ekologik barqarorlik yo'nalishini belgilovchi muhim mezon hisoblanadi. Xususan, Yevropa Ittifoqining "Green Deal" strategiyasi va uglerod chegaraviy mexanizmi (CBAM) eksport qiluvchi davlatlar uchun yangi imkoniyatlar va talablarni shakllantirmoqda [22]. Bu holat O'zbekiston korxonalarida yashil texnologiyalarni joriy etish, energiya samaradorligini oshirish hamda integratsion jarayonlarni ekologik standartlar asosida rivojlantirish uchun muhim rag'bat bo'lib xizmat qiladi.

5.6. O'zbekiston sharoitida institutsional integratsion model: SWOT tahlil

Taklif etilayotgan institutsional integratsion model SWOT tahlil asosida baholandi. Mazkur tahlilda modelning kuchli jihatlari, rivojlanish imkoniyatlari, takomillashtirish yo'nalishlari hamda tashqi omillar tizimli ravishda o'rganildi. SWOT tahlil natijalari modelning O'zbekiston iqtisodiyotida tarmoqlararo integratsiyani rivojlantirish, innovatsion faollikni oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun muhim institutsional asos bo'la olishini ko'rsatdi (3-jadval).

3-jadval
O'zbekistonda tarmoqlararo integratsiyaning institutsional modeli: SWOT tahlil³

S — Kuchli tomonlar	W — Zaif tomonlar
<ul style="list-style-type: none"> • Boy tabiiy resurslar, qulay geografik joylashuv hamda ESG mezonlari bo'yicha yuqori salohiyat mavjudligi. • 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi, erkin iqtisodiy zonalar va texnoparklar tizimining rivojlanishi. • Demografik dividend: yosh va mehnatga layoqatli aholi ulushining yuqoriligi hamda o'sib borayotgan o'rta sinf. <ul style="list-style-type: none"> • Metallurgiya, to'qimachilik va kimyo sanoatida shakllangan ishlab chiqarish bazasi. 	<ul style="list-style-type: none"> • Me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish zarurati. <ul style="list-style-type: none"> • Kapital bozori va moliyaviy vositalarning rivojlanish darajasini oshirish ehtiyoji. • Yuqori texnologik tarmoqlar uchun malakali muhandis va menejerlar tayyorlash zarurati. • Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga investitsiyalar hajmini kengaytirish imkoniyati.
O — Imkoniyatlar	T — Tahdidlar
<ul style="list-style-type: none"> • BRI ("Kamar va yo'l") tashabbusi doirasida Markaziy Osiyoning tranzit salohiyatidan samarali foydalanish. • Yevroosiyo va MDH hududlaridagi iqtisodiy hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirish. • Platforma ekotizimlari va raqamli iqtisodiyot orqali yangi bozorlarni o'zlashtirish. • Xalqaro iqlim moliyalashtirish manbalarini jalb etish hamda yashil investitsiyalarni kengaytirish. 	<ul style="list-style-type: none"> • Global xom ashyo bozorlaridagi narxlar o'zgaruvchanligi. • Mintaqadagi geosiyosiy jarayonlarning iqtisodiy faoliyatga ta'siri. • Texnologik rivojlanish sur'atlariga moslashish zarurati. • Iqlim o'zgarishi, suv resurslari tanqisligi va ekologik muammolar.

5.7. Takomillashtirish yo'nalishlari va mualliflik takliflari

Tadqiqot natijalari O'zbekistonda tarmoqlararo integratsiyaning institutsional modelini yanada rivojlantirish uchun muhim imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatdi. Shu asosda tizim samaradorligini oshirishga qaratilgan mualliflik takliflari ishlab chiqildi.

Birinchi yo'nalish — institutsional muhitni yanada takomillashtirishdir. Tarmoqlararo loyihalarni muvofiqlashtirish va boshqarish mexanizmlarini yanada mustahkamlash maqsadida "Tarmoqlararo integratsiya va klaster faoliyati to'g'risida" maxsus qonunni ishlab chiqish hamda integratsion loyihalarni muvofiqlashtiruvchi

3 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



Milliy integratsiya agentligini tashkil etish taklif etiladi. Mazkur yondashuv tarmoqlar va vazirliklar o'rtasidagi hamkorlik samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ikkinchi yo'nalish — moliyaviy va investitsion qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirishdir. Tarmoqlararo loyihalarning uzoq muddatli xususiyatini inobatga olgan holda davlat va xususiy kapital ishtirokida "Integratsion rivojlanish fondi"ni tashkil etish hamda klaster loyihalarini moliyalashtirish uchun risklarni taqsimlash mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu integratsion tashabbuslarning investitsion jozibadorligini oshirishga yordam beradi.

Uchinchi yo'nalish — inson kapitalini rivojlantirishdir. Integratsion boshqaruvni samarali tashkil etish uchun loyiha boshqaruvi, tarmoqlararo hamkorlik, raqamli boshqaruv va ekologik audit bo'yicha zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda oliy ta'lim muassasalarida "Integratsion boshqaruv" yo'nalishini joriy etish hamda mutaxassislar uchun qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlarini kengaytirish tavsiya etiladi.

Shuningdek, raqamli transformatsiya va yashil iqtisodiyot talablariga mos innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, ilm-fan va biznes hamkorligini mustahkamlash hamda hududiy klasterlar o'rtasidagi kooperatsiya mexanizmlarini kengaytirish tarmoqlararo integratsiya samaradorligini oshirishning muhim omillari sifatida baholanadi. Mazkur takliflarning amalga oshirilishi iqtisodiy tarmoqlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, innovatsion faollikni rag'batlantirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi (4-jadval).

4-jadval

Mualliflik institutsional integratsion modelning asosiy parametrlari va kutilayotgan natijalari⁴

Model elementi	Joriy holat	Maqsadli ko'rsatkich (2030-yil)	Talab qilinadigan chora
Klasterlar soni	14 ta	50 ta	Klaster siyosatini kengaytirish
R&D xarajatlari (YalMga nisbatan, %)	0,12%	1,0%	Soliq imtiyozlari va grant tizimini rivojlantirish
Davlat-xususiy sheriklik loyihalari	47 ta	300 ta	DXSh qonunchiligini takomillashtirish
Eksportdagi qayta ishlangan mahsulotlar ulushi	34%	60%	Sanoat integratsiyasi dasturini amalga oshirish
Tarmoqlararo raqamli platformalar soni	3 ta	20 ta	Raqamli infratuzilmaga investitsiyalarni kengaytirish
Yashil investitsiyalar hajmi (mlrd. AQSh dollari)	0,4	3,0	ESG standartlarini joriy etish

4-jadvalda keltirilgan maqsadli ko'rsatkichlar realistik va amaliy rivojlanish prognozlariga asoslangan bo'lib, ular Janubiy Koreya, Qozog'iston va Malayziyaning o'xshash iqtisodiy islohotlar davridagi tajribasi hamda O'zbekistonning mavjud iqtisodiy salohiyati va institutsional imkoniyatlari hisobga olingan holda shakllantirilgan.

Xususan, 2030-yilga qadar yashil investitsiyalar hajmini 7,5 barobarga oshirish ambitsiyali, ammo erishish mumkin bo'lgan maqsad sifatida baholanadi. Xalqaro iqlim moliyalashtirish institutlari, jumladan, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB), Global ekologik fond (GEF) va Osiyo taraqqiyot banki (ADB) tomonidan O'zbekistonda amalga oshirilayotgan va rejalashtirilayotgan dasturlar ushbu yo'nalishda qo'shimcha moliyaviy imkoniyatlar yaratmoqda. Shu sababli yashil investitsiyalarni kengaytirish, ESG standartlarini joriy etish hamda ekologik barqaror loyihalarni qo'llab-quvvatlash orqali belgilangan maqsadlarga erishish uchun qulay shart-sharoitlar mavjud deb baholanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot barqaror rivojlanish sharoitida tarmoqlararo integratsiyaning institutsional modelini O'zbekiston iqtisodiyoti misolida nazariy jihatdan asoslash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish maqsadida amalga oshirildi. Tadqiqot natijalari tarmoqlararo integratsiyaning samarali institutsional modeli institutsional muhit, koordinatsiya mexanizmlari, resurs va qiymat zanjiri hamda monitoring va moslashuv tizimidan iborat bo'lgan o'zaro bog'liq bloklar asosida shakllanishini ko'rsatdi. Ushbu modelning asosiy afzalligi uning dinamik, moslashuvchan va barqaror rivojlanish talablariga mos keluvchi xususiyatga egaligidadir. SWOT tahlil natijalari O'zbekistonda tarmoqlararo integratsiyani rivojlantirish uchun demografik salohiyat, tabiiy resurslar va qulay geoiqtisodiy joylashuv kabi muhim ustunliklar mavjudligini hamda mazkur omillar institutsional islohotlar bilan

4 Mualliflar tomonidan tuzilgan (2024).



uyg'unlashgan holda integratsion salohiyatni samarali ro'yobga chiqarish imkonini berishini tasdiqladi. Xalqaro qiyosiy tahlil esa ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari (R&D), patent faolligi hamda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini yanada rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, tarmoqlararo integratsiya va klaster faoliyatini tartibga soluvchi maxsus qonunni qabul qilish, Milliy integratsiya agentligini tashkil etish, "Integratsion rivojlanish fondi"ni shakllantirish, innovatsion tarmoqlararo loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish, yirik sanoat va xizmat ko'rsatish korxonalarini uchun integratsion hamda ESG hisobot tizimini joriy etish, oliy ta'lim muassasalari va sanoat korxonalarini o'rtasidagi buyurtmabop ilmiy tadqiqotlarni rag'batlantirish, shuningdek, hududiy klasterlar tizimini kengaytirish va Milliy klaster xaritasini ishlab chiqish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tarmoqlararo integratsiyaning institutsional modelini izchil rivojlantirish iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion faollikni rag'batlantirish, hududlararo iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash hamda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi. Kelgusidagi tadqiqot yo'nalishlari sifatida sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar texnologiyalarining tarmoqlararo boshqaruvga ta'siri, O'zbekistonning xalqaro integratsion tashkilotlar doirasidagi iqtisodiy imkoniyatlari hamda BRM-2030 maqsadlarini milliy klaster siyosati bilan uyg'unlashtirish masalalarini chuqur o'rganish istiqbolli ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. World Economic Forum. Global Competitiveness Report 2023. — Geneva: WEF Publishing, 2023. — 398 p.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son Farmoni. — Toshkent, 2022. — 26 b. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
3. World Commission on Environment and Development. Our Common Future (Brundtland Report). — Oxford: Oxford University Press, 1987. — 400 p.
4. United Nations. Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development. — New York: UN Publishing, 2015. — 41 p.
5. European Commission. The European Green Deal. COM(2019)640 final. — Brussels, 2019. — 24 p.
6. North, D. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. — Cambridge: Cambridge University Press, 1990. — 152 p.
7. Porter, M. The Competitive Advantage of Nations. — New York: The Free Press, 1990. — 855 p.
8. Tirole, J. The Theory of Industrial Organization. — Cambridge, MA: MIT Press, 1988. — 479 p.
9. Coase, R. The Nature of the Firm // *Economica*. — 1937. — Vol. 4. — No. 16. — P. 386–405.
10. Linton, P., Clausen, M. Digital Integration and Transaction Cost Reduction in Supply Chains // *Journal of Operations Management*. — 2022. — Vol. 68. — No. 4. — P. 317–339.
11. Bertalanffy, L. General System Theory: Foundations, Development, Applications. — New York: George Braziller, 1968. — 289 p.
12. Williamson, O. The Economic Institutions of Capitalism. — New York: Free Press, 1985. — 450 p.
13. Dunning, J.H. Regions, Globalization and the Knowledge-Based Economy. — Oxford: Oxford University Press, 2002. — 394 p.
14. Amsden, A. Asia's Next Giant: South Korea and Late Industrialization. — Oxford: Oxford University Press, 1989. — 378 p.
15. Etzkowitz, H., Leydesdorff, L. The Dynamics of Innovation: From National Systems and Mode 2 to a Triple Helix of University–Industry–Government Relations // *Research Policy*. — 2000. — Vol. 29. — No. 2. — P. 109–123.
16. Fraunhofer-Gesellschaft. Annual Report 2023. — München: Fraunhofer Verlag, 2023. — 148 p.
17. Acemoglu, D., Robinson, J. Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity and Poverty. — New York: Crown Publishers, 2012. — 529 p.
18. Rodrik, D. The Globalization Paradox. — New York: W.W. Norton & Company, 2011. — 346 p.
19. Sachs, J. The Age of Sustainable Development. — New York: Columbia University Press, 2015. — 543 p.
20. Xasanov, R., Tursunov, N. O'zbekistonda klaster siyosatining institutsional asoslari // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*. — 2021. — № 5. — B. 34–48.
21. Haydarov, Sh., Toshmatov, B. O'zbekistonda sanoat integratsiyasining me'yoriy-huquqiy asoslari: tahlil va takliflar // *O'zbekiston iqtisodiyoti*. — 2022. — № 3. — B. 71–89.
22. Abdullayeva, A. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida bilim klasterlari: nazariya va amaliyot. — Toshkent: TDIU nashriyoti, 2023. — 284 b.



23. Rashidov, A. O'zbekiston bank tizimida ssuda portfelining tarkibiy muammolari // Moliya-bank tizimlari: rivojlanish strategiyasi. — Toshkent, 2023. — B. 112–131.

24. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. 2023-yil yakunlari bo'yicha statistik to'plam. — Toshkent: Davlat statistika qo'mitasi nashriyoti, 2024. — 312 b. URL: <https://stat.uz> (murojaat qilingan sana: 2024-yil 20-aprel).

25. O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi. "Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturi bo'yicha hisobot. — Toshkent, 2023. URL: <https://mitc.uz/reports/2023> (murojaat qilingan sana: 2024-yil 15-aprel).

26. World Bank. Uzbekistan Economic Update 2023: Strengthening Macroeconomic Resilience. — Washington, D.C.: World Bank, 2023. — 74 p. URL: <https://worldbank.org/uz> (accessed: 2024-04-25).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>